

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



- 60720100 - Biotexnologiya (ozuq-ovqat, ozuqa va qishloq xo'jaligi)
- 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyalari (don mahsulotlari)
- 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyalari (yog'-moy mahsulotlari)
- 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyalari (non, makaron va qandolat mahsulotlari)

Bitiruv malakaviy ishlarni bajarish uchun

USLUBIY QO'LLANMA

Tuzuvchilar: b.f.f.d. PhD. Turbekova D.B., t.f.f.d. PhD. Tuxtamishova G.Q.,
b.f.f.d. PhD. Tog'ayeva M.V.,
Taqrizchilar: b.f.f.d. dots. J.P. Shergulova, QarDU, Mikrobiologiya va
biotexnologiya kafedrası mudiri,
t.f.f.d. dots. O.A. Uzaydullayev Oziq-ovqat texnologiyalari
kafedrası mudiri.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 1998-yil 31-dekabrda 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, Oliy o'quv yurtlarida bakalavr va magistrning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablarga asoslangan holda mazkur uslubiy qo'llanma Guliston davlat universiteti hamda Buxoro davlat universiteti 60710200-Biotexnologiya (ozuq-ovqat, ozuqa va qishloq xo'jaligi), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (don mahsulotlari), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (yog'-moy mahsulotlari), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (non, makaron va qandolat mahsulotlari) yo'nalishtari bakalavr ta'lim yo'nalishtari bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishtarini bajarishga mo'ljallangan.

Uslubiy qo'llanma GulDU "Oziq-ovqat texnologiyalari" kafedrasining 2024 yil "28" 08 majlisida muxokama qilingan. Bayonnoma № 1

Uslubiy qo'llanma GulDU "Ishlab chiqarish texnologiyalari" fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2024 yil "41" 09 majlisida ma'qullangan. Bayonnoma № 1

Uslubiy qo'llanma Guliston davlat universiteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2024 yil "08" 10 daqi "2" sonli majlisida tasdiqlangan.

Annotatsiya

Oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimi har bir navbatdagi bosqichdan keyin bitiruvchiga davlat tomonidan tan olinadigan diplom berilishini nazarda tutadi: birinchi bosqichda to'liqsiz oliy ma'lumot haqidagi diplom, ikkinchi bosqichda bakalavr diplomi, uchinchi bosqichda magistr diplomi.

Ta'limning bakalavriat bosqichi bo'lg'usi mutaxassislarini muayyan yo'nalish bilan atrofla tanishtirishni, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarining paydo bo'lishini nazarda tutsa, magistratura bosqichi fanlarning ilmiy jihatdan chuqurligi, ilmiy yangiliklarning yaratilishi va ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalarining shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu bilim va ko'nikmalar ta'limning yakuniy bosqichida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi - oliy o'quv yurti bakalavriatidagi ta'limning yakuniy bosqichidir.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan asosiy maqsad quyidagilardir:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha nazariy, amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;
- ijodiy ish yuritishda va ishlab chiqarayotgan masalaning qo'yilish jarayonidan boshlab uni to'la nihoyasiga yetkazishgacha bo'lgan bosqichlarda qaror qabul qilish masuliyatini his etishga o'rgatish;

- zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida bakalavrlarni mustaqil ishlashga tayyorlashdir.

Talaba o'zining bitiruv malakaviy ishidagi ishlab chiqarishni boshqarishga, jarayonlarni to'la ravishda avtomatlashirishga, kapital mablag'lardan samarali foydalanishga, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilishga, mehnat sharoitini yaxshilashga, zararli chiqindilarni kamaytirishga alohida e'tibor berishi lozim. Talaba ishlangan texnologiyalarga jahon bozoriga olib chiqishga, yuqori texnikaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarga intilishi zarur. Buning uchun ko'p adabiyotlar bilan tanishish va turli loyihalash tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu uslubiy qo'llanma 60710200-Biotexnologiya (ozuq-ovqat, ozuqa va qishloq xo'jaligi), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (don mahsulotlari), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (yog'-moy mahsulotlari), 60720100-Oziq-ovqat texnologiyalari (non, makaron va qandolat mahsulotlari) ta'lim yo'nalishtari bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun tayyorlangan ish hisoblanadi. Shunday bo'lsa, mualliflarning ko'p yillik ish tajribasi ko'rsatmani o'ziga xos usulda tayyorlashga imkon yaratadi, unda bo'limlar aniq ko'rsatilgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishini yuqori darajada bajarish imkoniyatlari mavjud.